



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “11” aprel

01-02300 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining  
9-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

**Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov**

**Qatnashdilar:**

«29» mart 2023 yil

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a‘zolari  
(ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) 2022-2023 o‘quv yili kuzgi semestrda talabalarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish va sifat ko‘rsatkichlarining tahlili. Muammolar va takliflar.

Ma‘ruzachi – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Boymuradov Shuxrat Abdusalilovich.

2. Xalqaro fakultet hisoboti.

Ma‘ruzachi – Xalqaro fakultet dekani Tursunov Djahangir Xusanovich.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma‘ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna,  
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i  
Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan maqullandi.

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “2022-2023 o‘quv yili kuzgi semestrda talabalarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish va sifat ko‘rsatkichlarining tahlili. Muammolar va takliflar” mavzusi yuzasidan O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori Boymuradov Shuxrat Abdusalilovichning ma‘lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma‘ruza matnda keltirilgan).

1.1. Akademiya barcha kafedralarida talabalar bilimni baholash tizimini yagona yondashuv asosida takomillashtirilishi, jumladan yakuniy nazorat savollari qayta ko'rib chiqilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023- yil aprel.**

1.2. Barcha mutaxassislik fanlariga tegishli malaka talablari, malakaviy kompetensiya, amaliy ko'nikmalar hajmi har bir fanlar bloki bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 - yil aprel.**

1.3. Bitiruvchilarning malaka talablari ish beruvchining talablariga mos ravishda bo'lishini hamda mutaxassisliklar bo'yicha vertikal va gorizontal integratsiya holatini inobatga olgan holda amaliy ko'nikmalar yagona tizimga keltirilganligi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 - yil aprel.**

1.4. Kredit-modul tizimida ta'lim olayotgan semestrda fanlardan qarzidor talabalarga yozgi semestrda fanlarni qayta topshirishga shart-sharoitlar yaratilsin va tayyorgarlik ko'rilsin, shuningdek mustaqil ta'lim olish tartibi joriy etilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023- yil aprel.**

1.5. Yozgi semestrda qarzidor talabalarni o'qitish bo'yicha reja, shuningdek, ta'til davrida dars beruvchi pedagoglar ro'yxati tuzilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023- yil aprel.**

1.6. Kredit to'play olmagan, 1-2 kurs talabalar yozgi semestrda o'qishni davom etiradi, to'lov miqdorini belgilash bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Magistratura bo'limi boshlig'i A.A. Imamov, Reja –moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipov.**

**Muddat: 2023-yil aprel.**

1.7. Akademiyada faoliyat yuritayotgan Yosh pedagoglar maktabining ishini kuchaytirish bo'yicha takliflar kiritilsin. Shuningdek, xorijiy guruhlariga ingliz tilida dars beradigan pedagoglarni tayyorlash yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xorijiy fakultet dekani J.X.Tursunov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat:2023- yil aprel.**

1.8. Akademiyada ochilgan yangi ta'lim yo'nalishlarining (Menejment: sog'liqni saqlashda menejment, Biotibbiyot muhandisligi, Xalq tabobati, Pediatriya, Stomatologiya, Farmatsiya) o'quv jarayoni 3 tilda (o'zbek, rus va ingliz), shu jumladan

elektron shaklda, zamonaviy adabiyotlar bilan to'liq boyitilishi, yangi adabiyotlar yaratilishi bo'yicha buyurtmalar shakllantirilishi, xarid qilinishi hamda ijrochi va muddati aniq belgilangan holda bajarilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Bosh hisobchi B.I. Alijonova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil fevral - mart.**

1.9. Barcha fanlar bo'yicha kafedralarda va simulyatsion markazda bajaraladigan amaliy ko'nikmalar yakuniy ro'yxati aniq tartibga keltirilsin, shuningdek yetishmayotgan asbob-uskuna va jihozlar bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Simulyatsion kafedrasi mudiri D.A.Parpibayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023- yil aprel.**

1.10. "2023 yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da Akademiyada sifatli ta'lim tizimini kuchaytirish va yaratish hamda transformatsiya qilish maqsadida xorijiy nufuzli "Oliy ta'lim muassasalar" tajribasi o'rganilishi va solishtirilishi va uning natijasida barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etilishi va raqamlashtirilishi, baholash tizimi, bitiruvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari malakaviy kompetensiyaga mosligi, professor-o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borilishi bo'yicha kerakli xulosalar olib amaliyotga tatbiq etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat:2023- yil davomida.**

1.11. O'quv jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, jumladan:

1-va 2-kurs kredit-modul tizimida talabalarning bilimni baholash (JN, ON va YaN) me'zonlariga to'liq rioya qilinmasligi - Anatomiya va klinik anatomiya, (R.J.Usmanov), Normal va patologik fiziologiya ( B.U.Iriskulov);

YaN test savollari bazasining yangilanmaganligi - Patologik anatomiya (X.Z.Tursunov), Farmakologiya (M.Dj. Allayeva);

kafedralarda guruhlar kesimida o'zlashtirish ko'rsatkichlarining muntazam ravishda muhokama qilinmayotganligi (natijada semestr yakuni bo'yicha talabalar baholaridan noroziligi mavjud bo'lishi), Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika (M.I.Bazarbaev.), Patologik anatomiya (X.Z.Tursunov), Tibbiy radiologiya (M.X.Ismoilova);

kafedralarda talabalarni elektron platformadan foydalanishni talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi-Farmakologiya (M.Dj.Allaeva), Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish (G.K.Xudaykulova);

qoldirilgan darslarni qayta topshirish tartibiga rioya qilinmasligi -Tibbiy radiologiya (M.X.Ismoilova) – yuzasidan yuqorida keltirilgan kafedra mudirlari **og'ohlantirilsin.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "Xalqaro fakultet hisoboti" mavzusi yuzasidan Xalqaro fakultet dekani Tursunov Djahangir Xusanovichning hisoboti qoniqarsiz deb hisoblansin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Xalqaro fakultetga qarashli kafedralarda tahsil oluvchi barcha ta'lim yo'nalishlari uchun moddiy-texnik bazani yaratish va kuchaytirish maqsadida o'quv va laboratoriya jihozlari, maxsus o'quv asbob va anjomlari bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.**

**Muddat: 2023 – yil aprel.**

2.2. Akademiyada yangi ochilishi rejalashtirilayotgan ta'lim yo'nalishi (kimyo) bo'yicha o'quv jarayonini 3 tilda (o'zbek, rus va ingliz), shu jumladan elektron shaklda olib borish uchun zamonaviy adabiyotlar bilan to'liq boyitilgan dasturlar yaratilishi amalga oshirilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.**

**Muddat: 2023 - yil aprel - iyun.**

2.3. Akademiyada yangi ochilishi rejalashtirilayotgan ta'lim yo'nalishi (kimyo) uchun kadrlar tayyorlash maqsadida kasbga yo'naltirilgan targ'ibot va saralash ishlari olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D. X. Tursunov, fakultet dekanlari , kafedra mudirlari .**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.4. Akademiyaning bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida oliy ta'limdan keyingi ta'limni munosib kadrlar bilan boyitish maqsadida seleksiya ishlari olib borilishi ta'minlansin .

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X. Tursunov, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.5. Xalqaro fakultetning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida har bir xodimning o'quv - ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishini monitoringi va nazorat qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.I.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.6. Xalqaro fakultet tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grant-loyihalari tanlovlarida faol qatnashishlari hamda xo'jalik shartnomalari bo'yicha ishlar olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.**

**Muddat : 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.7. Xalqaro fakultet dekani J.X.Tursunovning hisoboti yuzasidan Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i D.D.Achilov tomonidan Xorijiy fakultet faoliyati bo'yicha quyidagi kamchiliklar aniqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ingliz tilida yaratilgan fan dasturlarida kamchiliklar ko'p va takomillashtirilmagan hamda fan resurslarini (darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy majmua) sonini oshirish choralari ko'rilmagan;

Ingliz tiliga tarjima qilingan o'quv adabiyotlarini sonini oshirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritilmagan va tegishli choralar ko'rilmagan;

Boshqaruv yuzasidan ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida takliflar kiritilmagan;

Mutaxassislik fanlaridan ingliz tilida dars beruvchi xodimlar kasbiy kompetentligi monitoringi yo'lga qo'yilmagan va o'qituvchilarni dars berish mahoratini oshirish bo'yicha amaliy tadbirlar amalga oshirilmagan;

Fakultet faoliyatiga tegishli 24 xil me'yoriy hujjatlar reestri yuritilmagan;

Fakultetda xodimlar uchun keldi-ketdi jurnali yuritilmagan;

Har bir xodimning ish grafigi ko'rsatilmagan va xodimlar bo'limiga taqdim etilmagan;

Fuqarolar murojaatlari qabuli bo'yicha jurnal yuritilmagan;

Toshkent tibbiyot akademiyasi saytida fakultet haqida ma'lumot mavjud emas va mavjud axborot tizimlaridan to'liq foydalanilmagan, korporativ pochталarni tizimli ishlashi yo'lga qo'yilmagan;

Fanlar kesimidagi reyting qaydnomalari to'liqligicha fakultetda mavjud emas;

Xorijiy talabalarni ommaviy sport va barcha tadbirlarga keng jalb qilish ishlari talab darajasida emas;

Talabalar o'rtasida ommaviy va ijodiy to'garaklar bo'yicha talab va takliflar o'rganilmagan;

Xorijiy fakultet to'g'risida keng tizimli targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilmagan;

Xozirgi kunda jami 19 ta davlatdan kelgan talabalarni o'qitish yo'lga qo'yilgan, ammo talabalarni jalb etish va mamlakatlar sonini ko'paytirish maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilmagan;

Barcha kafedralarni qamrab olish maqsadida tashriflar rejasini tasdiqlash talab qilingan bo'lsada, ijrosi bajarilmagan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Xalqaro fakulteti dekani J.X.Tursunovning faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklari uchun **hayfsan intizomiy jazo** chorasi qo'llanilsin.

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.04 - Otorinolingologiya ixtisosligi bo'yicha Otorinolingologiya va stomatologiya kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi U.M.Ergashev, 14.00.06 - Kardiologiya ixtisosligi bo'yicha 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi M.X.Maksudova, 14.00.05 - Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha 2-son Oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari doktori N.M. Abduraxmonova va 14.00.19- Klinik radiologiya ixtisosligi bo'yicha 2-son davolash fakulteti tibbiy radiologiya kafedrasida dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi G.E.Raxmonovalar nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va

hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo'yicha Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.D.Israilov, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh. Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.To'raqulov so'zga chiqdilar.

5.1. Akademiya va Kyungwoon Universitetining (Janubiy Koreya) o'rtasidagi hamkorlikni rivojlanishida qo'shgan samarali mehnati va xizmatlari uchun Kyungwoon Universitetining Prezidenti professor **Kim Dong Je** ga Akademiyaning **Fahriy Professori** unvoni berilsin.

5.2. Akademiya xorijiy tillarni o'rganishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, professor-o'qituvchilar va talaba yoshlarga xorijiy tillarni o'rganishni yanada ommalashtirish maqsadida Xalqaro fakultet qoshida tashkil etilgan "Til o'rgatish markazi"ning Nizomi tasdiqlansin.

5.3. Akademiyaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ilmiy, innovatsion va "Start app" loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish bo'yicha "Toshkent tibbiyot akademiyasining Ilmiy-texnik jihatdan muvofiqlashtiruvchi kengash" Nizomi tasdiqlansin.

5.4. Akademiyaning magistratura va doktoranturaga mustaqil kvotalarni ajratish to'g'risidagi Nizom tasdiqlansin.

5.5. Akademiya professor, dotsent, katta o'qituvchi lavozimlariga o'tkazish mezonlari tasdiqlansin.

5.6. Neyroxirurgiya yo'nalishi 2-kurs magistr Karimov Bahodirjon Alisher o'g'li Yaponiya davlati Nagoya shahri "Fujita Health University Bantane Hospital" neyroxirurgiya bo'limiga 2-oylik malaka oshirish kursiga taklif etilishi munosabati bilan (kurs muddati 2023-yil 3-apreldan 3-iyungacha) ushbu muassasaga stajirovkaga borib kelishiga tavsiya etilsin.

5.7. Akademiya raqamlashtirish ishlari amalga oshirilishi va hujjatlar elektron tizimi almashinuvi yuritilishi munosabati bilan barcha kafedralarda laborant hamda xona mudiri lavozimlari qisqartirilishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L. Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipov, Yuriskonsult S.M.Yusupova.**

**Muddat: 2023- yil 10- aprel.**

5.8. 2023-yil 1- **apreldan** boshlab Akademiyaning barcha fakultet va bo'limlaridagi xodimlar elektron kalitlari (E-imzo)ga ega bo'lishlari va elektron hujjat almashinuvida faoliyat yuritishlarida dekan va bo'lim boshliqlari mas'ulligi belgilansin.

**Mas'ul: Xodimlar bo'limi boshlig'i N.A.Ismatullayeva, Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring D.D.Achilov.**

**Muddat: 2023- yil 1- aprel.**

5.9. 2023-yil 1-**apreldan** barcha tyutorlar 2023- yil 27-martdagi 208-sonli Akademiya rektorining "Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq o'z faoliyatlarini elektron hujjat almashinuvi tizimida (EDO) yuritishlari ta'minlansin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i A.Alikulov.**

**Muddat: 2023 -yil 1- aprel.**

5.10. 2023-yil 1-**apreldan** barcha kafedralardagi o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar elektron kalitlari (E-imzo)ga ega bo'lishlari va elektron hujjat almashinuvida faoliyat olib borishlari bo'yicha kafedra mudirlari mas'ulligi belgilansin.

**Mas'ul: Barcha fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2023- yil 1- aprel.**

5.11. 2023 - yil 1-**apreldan** barcha davolash ishlari bo'yicha olib boriladigan ishlar (shartnomalar, hisobotlar, klinik bazalarga oid materiallar) elektron hujjat almashinuvi tizimida (EDO) yuritilishida kafedralarning davolash ishlari bo'yicha mas'ul ijroni ta'minlashi belgilansin.

**Mas'ul: Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh. Karimov, Barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil 1- aprel.**

5.12. 2023-yil 1-**apreldan** dekanat tomonidan beriladigan barcha ma'lumotnoma va ruxsatnomalar elektron hujjat almashinuvi EDO tizimi orqali yuritilishini ta'minlashda dekanlar mas'ulligi belgilansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov.**

**Muddat: 2023- yil 1-aprel.**

5.13. 2023-yil 1-**apreldan** 1-bo'lim ma'lumotnomalari elektron hujjat almashinuvi tizimida (EDO) yuritishlarida 1-bo'lim boshlig'i M.U. Ilmuradov mas'ulligi belgilansin.

**Mas'ul: Rektor maslahatchisi S.A.Abdulqosimov.**

**Muddat: 2023 yil 1- aprel.**

5.14. Akademiya kafedralarining o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlariga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida har bir dekan muovnlari tomonidan kafedralarga muntazam ravishda tashrif buyurishlari bo'yicha reja ishlab chiqilsin, shuningdek natijalariga oid hisobotlari Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va

monitoring (**D.D.Achilov**) va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlariga (**R.I.Turakulov**) EDO orqali kiritilishi ta'minlansin.

5.15. 2023-yil **1-maydan** boshlab Akademiya xodimlari kesimida oylik maoshini (tabel) elektron hujjat almashinuvi tizimida (EDO) yuritilishi va rasmiylashtirilishida Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipov, Komplayens-nazorat bo'limi boshlig'i D.B.Xadjiyev, Xodimlar bo'limi boshlig'i N.A.Ismatullayevalar mas'ulligi belgilansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. S. I.Dustmurodov.**

**Muddat: 2023-yil 1-may.**

5.16. 2023-yil qishki ta'til davrida, anomal sovuq sababli hamda ta'til vaqtining o'zgarishi natijasida Talabalar turar joyida yashovchi talabalar yanvar oyi bo'yicha to'lanadigan 1 oylik to'lovdan ozod qilinsinlar. Asos:Akademiya Yoshlar Ittifoqi va Talabalar kengashining murojaatnomasi.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov.**

**Muddat: 2023 -yil.**

**Qaror bir ovozdan maqullandi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.**

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**